



MOLIYA VA BANK ISHI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK-MOLIYA AKADEMIYASI ILMİY JURNALI



Banklarda aktivlarini markazlashgan holda tasniflash va ularni raqamlashtirish mexanizmlari

G'ayupov Po'latjon Ne'matjonovich

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi mustaqil izlanuvchisi.

Maqola haqida ma'lumot

Topshirilgan vaqti: 09.11.2025

Qabul qilingan vaqti: 12.11.2025

Tayanch so'z va iboralar: aktivlar, kredit tavakkalchiligi, muddati o'tgan qarzdorlik, muammoli aktivlar

Annotatsiya

Tijorat banklari faoliyatida bank aktivlari muhim ahamiyat kasb etadi. O'z navbatida ushbu aktivlarni sog'lom holatda boshqarish va raqamlashtirilgan tarzda tasniflash, jarayonlarni avtomatlashtirish, aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish orqali moliyaviy barqarorlikka erishish omili bo'lib xizmat qiladi.

Mechanisms for centralized asset classification and digitization in banks

G'ayupov Po'latjon Ne'matjonovich

Independent researcher at the Banking and Finance Academy of the Republic of Uzbekistan.

ARTICLE INFO

Received: 09.11.2025

Accepted: 12.11.2025

Key words: assets, credit risk, overdue debt, problem assets

Abstract

Bank assets play a significant role in the activities of commercial banks. In turn, the sound management and digital classification of these assets, automation of processes, formation and use of reserves against potential losses on assets serve as a factor in achieving financial stability.

Kirish

Banklarda transformatsiya jarayonlarida raqamlashtirish ishlari muhim o'ringa ega. Shu nuqtayi nazardan bank faoliyatining asosini tashkil etuvchi bank aktivlarini tasniflash, aktivlar boshqarilishini raqamlashtirish banklarning iqtisodiy va moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda aktivlarni markazlashgan holda tasniflash va aktivlar boshqarilishi jarayonlarini raqamlashtirish asosiy daromad manbai bo'lib xizmat qilayotgan bank aktivlari bo'yicha juda muhim va strategik jarayon hisoblanadi.

Aktivlarni samarali boshqarilishiga bank tizimida ustuvor vazifa sifatida qarash, kelgusida bank aktivlari (kredit, bank kafolati va boshqa aktivlar) bo'yicha zaxiralar yaratilishini nazorat qilish maqsadida strategiya ishlab chiqish nuqtayi nazaridan mazkur jarayonlar to'liq avtomatlashtirilgan holda bo'lishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Aktivlarning xususan kredit, bank kafolati va boshqa aktivlar bank daromadiga ta'siri o'ta yuqoriligini hisobga olgan holda kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflarni bartaraf etishda aktivlarni

markazlashgan tarzda raqamlashtirish mavzuning dolzarbligini belgilab beradi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan bank aktivlari 124,0 mlrd.so'mga oshganini ko'rish mumkin, shundan 67 %dan yuqori qismi kreditlarga to'g'ri kelmoqda.

Amaliyotda aktivlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2696 son bilan ro'yxatga olingan O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki Boshqaruvining "Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risida"gi Nizomga asosan tasniflab kelinmoqda.

Aktivlar tasnifini va ular bo'yicha yaratilishi lozim bo'lgan zaxiralar mezonini belgilovchi ushbu Nizomning ayrim bndlari aktivlarni boshqarishda samarali hisoblansa ayrim bndlari o'z navbatida aktivlar sifatini markazlashgan holda tasniflash jarayonlarini avtomatlashtirishda ko'plab noqulayliklar mavjud.

-Aktivlarini markazlashgan holda tasniflash va ularni raqamlashtirish mexanizmlarini belgilab beruvchi asosiy omil hisoblanadigan Nizomning ayrim bndlari bank amaliyotida qo'llash ko'plab savollar tug'dirmoqda.

1-jadval

Tijorat banklari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari to'g'risida ma'lumot

mlrd.so'mda

№	Bank nomi	2024 yil		2025 yil	
		Aktiv	Kredit	Aktiv	Kredit
Jami		753 052	521 025	877 409	592 854
Davlat ulushi mavjud banklar		500 453	362 005	569 086	401 846
1	O'zmilliybank	138 246	106 721	137 225	104 785
2	Agrobank	86 229	63 041	103 707	80 061
3	O'zsanoatqurilishbank	78 155	60 190	98 087	66 395
4	Asaka bank	58 009	38 108	63 208	42 383
5	Xalq banki	45 479	29 568	51 416	32 240
6	BRB	33 318	22 668	36 675	24 159
7	Aloqa bank	24 076	17 527	29 322	17 422
8	Mikrokreditbank	19 940	11 776	29 055	20 352
9	Turon bank	17 002	12 405	20 391	14 049
Boshqa banklar		252 599	159 020	308 323	191 008

*Manba: Markaziy bank ma'lumoti asosida tayyorlandi

•Bank amaliyotlarida asosan aktivlar xos raqam orqali tasniflanadi. Ya'ni jismoniy shaxs xos raqami bilan xuddi shu jismoniy shaxs tashkil qilgan yakka tartibdagi tadbirkorlik alohida alohida tasniflanadi. Lekin ushbu mijoz yagona jamg'arib boriladigan hisobvarag'iga ega.

•Nizomning 9 bandida "qarz oluvchi (birgalikda qarz oluvchi) jismoniy shaxs barqaror daromad manbaiga ega" ekanligi ko'rsatib o'tilgan 2025 yil 8 apreldagi №3618 sonli "Banklarga o'rnatiladigan makroprudensial normativlar hamda ular tomonidan beriladigan kreditlar (mikroqarzlari) bo'yicha to'lovlarning eng yuqori qiymatlariga doir talablar to'g'risida"gi Nizom 3-bandida esa barqaror daromad manbaiga ega bo'lmagan qarzidorliklar soni jismoniy shaxslarga ajratilgan bank kredit portfelining 15% miqdorigacha ekanligi ko'rsatilgan. Bu o'z navbatida mazkur kreditlarni standart tasniflashda barqaror daromad manbaiga ega bo'lmaganligi sababli ayrim kamchiliklar keltirib chiqarishi mumkin.

•Faoliyati mavsumiy xususiyatga ega qarzidorlar bo'yicha tasniflash alohida ahamiyat kasb etadi. Nizomning 121 va 301 bandlarida aktivning sifati qaytarish grafigiga asosan ketma-ket 3 ta to'lov o'z vaqtida va to'liq to'langanda aktiv sifati yaxshilanishi mumkinligi ko'rsatilgan. Bunda mavsumiy xususiyatga ega qarzidorlarga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Sababi ular asosan xar 6 oyda to'lov amalga oshiruvchi hisoblanadi. Ushbu faoliyatga ta'sir etuvchi obyektiv va subyektiv ta'sirlar asosida agar aktiv qoniqarsiz yoki shubhali tasniflanib keyinchalik bank oldida muddati o'tgan qarzidorliklarini mavjud bo'lmasa ham banklar kamida 1,5 yil mobaynida aytaylik kamida 10 % miqdorida zaxira shakllantirib borishi lozim bo'ladi. Mijozlar to'lov grafiklarini 3 marta ketma ket amalga oshirish uchun yuqorida ko'rsatilgan vaqt talab etiladi. Bu o'z navbatida ularga hisoblanadigan kunlik foizlarga ham 10% miqdorida zaxiralar shakllantirishni talab etadi. Alohida ahamiyat beriladigan muhim jihat shundan iboratki,

aktivni ya'ni kreditni ajratishda jalb qilingan resurs yoki aholi omonatlari foizlari chiqarib tashlanganda bank marjasi manfiy holatda bo'ladi.

•Banklarda aynan foyda olish maqsadida ajratilayotgan kreditlar bank kafolatlari qaysidir soha va jamiyatni iqtisodiy hamda moliyaviy rivojlanishiga yangi ish o'rinlarini yaratilishiga yoki mavjud ish o'rinlarini saqlab qolishga xizmat qiladi. Nizomning 335 bandiga e'tibor qaratilsa, bank mijozining oxirgi 5 yilda salbiy kredit tarixiga ega ekanligi, ya'ni to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirmaganligi unga berilishi mumkin bo'lgan bank kafolatini shubhali tasniflanishiga, 50% miqdorida zaxira yaratilishiga olib keladi. Natijada esa avvalgi (masalan 3 yil oldin) faoliyati salbiy hozirgi kunda esa barqaror faoliyat ko'rsatayotgan, banklarga ma'lum bir miqdorda foyda keltirayotgan mijozga bank kafolati berilishini cheklaydi. Bu esa o'z navbatida bank kafolati orqali o'z faoliyatini rivojlantirmoqchi bo'layotgan korxonalarga salbiy ta'sir qiladi.

•Tijorat banklari tomonidan berilgan kafolatlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi zaxiralar yaratishda Nizomning 336 bandi ham muhim o'rin tutadi. Bu nafaqat kafolatlariga bank kafolati berilgan mijozning barcha aktivlariga ma'lum miqdorda ta'sir ko'rsatadi. Bank kafolati berilgan mijozning bank oldidagi kredit yoki boshqa qarzlari bo'yicha to'lovlarning o'z vaqtida amalga oshirilmaganligi ushbu aktivlarga nisbatan bank tomonidan 100% miqdorida zaxiralar shakllantirishga olib keladi. Fikrimizcha ushbu holatni hech qaysi bank xohlamaydi. Bank foyda olish maqsadida yo'naltirgan aktivlariga boshqa manbalar hisobidan topilgan daromadlar hisobidan zaxiralar shakllantirish albatta bank zarariga ishlashi mumkin. Ushbu holatda yechim sifatida kreditlar o'z yo'nalishida muddati o'tgan qarzidorliklar yoki boshqa holatlar bo'yicha tasniflanishi va bank kafolatiga ham ushbu tasnif doirasida zaxiralar shakllantirish ancha maqbul yechim sifatida ko'rish mumkin.

•Aksincha yuqoridagi bandning "berilgan kafolat bo'yicha majburiyatni bank tomonidan bajarish holatlarining yuzaga kelishi" qismiga e'tibor berilsa, ushbu holatda ham 100% miqdorida aktivlarga zaxira talab etiladi. Bank tomonidan amalga oshirilgan to'lovlar kunidan kelib chiqib tasniflashni ancha maqbul yechim sifatida qabul qilish mumkin. Sababi amaliyotlarda bank tomonidan to'lab berilgan bank kafolatlarida ham bank tomonidan ma'lum bir miqdorda daromad olib kelmoqda. Bu o'z navbatida bank tomonidan amalga oshirilgan to'lovlarga daromad keltiruvchi aktiv sifatida qarash imkonini beradi.


Barchaga ma'lumki bankda aktivlar uchun maxsus zaxiralar «substandart» deb tasniflanganda 10 %; «qoniqarsiz» deb tasniflanganda yigirma 25%; «shubhali» deb tasniflanganda 50%; «umidsiz» deb tasniflanganda 100% miqdorda bank xarajati hisobidan zaxira shakllantiriladi. Ushbu amaliyotlar tijorat banki maxsus zaxiralarni aktivlarni tasniflash uchun mazkur Nizomda nazarda tutilgan asoslar vujudga kelgan sanadan boshlab shakllantirishi va ular bo'yicha buxgalteriya o'tkazmalarini dasturlashgan holda amalga oshirishi lozim. Bu esa

aktivlarni barcha holatda dasturlashgan tizim yordamida tasniflashi va zaxiralar shakllantirilishi lozim.

Nizomda ijara haqlari, bank xizmatlari, jarima, penya va boshqa aktivlar tasniflashi afsuski alohida holatda ko'rsatib o'tilmagan.

Banklarda aktivlarini tasniflash va ularni raqamlashtirish mexanizmlarida ijara haqlari, bank xizmatlari, jarima, penya, sud pochta xarajatlari va boshqa holatlar aniq ko'rsatmalar asosida joriy etilishi lozim.

Aktivlarning yaxshi tomonga tasniflanishi yoki yomon holatda tasniflanishi bu umumiy o'zgaruvchan jarayon hisoblanadi. Ma'lum bir davrda kreditlar, aktivlar toifasiga qarab yaxshi va yomon toifada tasniflanishi mumkin. Bu holatlarni inkor etib bo'lmaydi. Aksincha, ular bilan samarali kurashish va bu karashda samarali yo'l topa bilish umumiy jarayonlarga ma'lum miqdorda ta'sir o'tkazishi mumkin.



Manba: Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Bank tizimining taqqoslama ko'rsatkichlari ma'lumotlariga ko'ra, bank aktivlari so'ngi 5 yilda ikki birobardan ortiq 403,2 trln.so'mga ortganini ko'rish mumkin. Ma'lumotlarga ko'ra so'ngi 4 yilda aktivlarning 70 % qismini kredit qarzdorliklari tashkil etmoqda.

Izlanishlar natijasida eng yomon toifada tasniflangan aktivni ham ma'lum bir miqdor o'zgarishi natijasida sog'lomashtirish va bu jarayonlarni raqamlashtirishga erishiladi. Xususan, sud jarayonidagi kreditlar va balansdan tashqari hisobvaraqlarda aks ettirilayotgan kreditlarni tizimli ravishda sog'lomashtirish mexanizmi bank tizimiga to'liq joriy etildi.

Sud jarayonidagi kreditlar (Nizomning avvalgi tahrirlariga ko'ra umidsiz toifada tasniflangan) muddati o'tgan kunlardan kelib chiqib tasniflanishi belgilandi. O'z navbatida to'liq sud jarayoni hisobvarag'ida aks ettirilib borilayotgan kreditning muddati o'tgan kunlar sonidan kelib chiqib tasniflash va zaxiralar shakllantirish hamda ushbu kreditni sog'lomashtirish vazifasi bugungi kunda dasturlash yo'li orqali to'liq bartaraf etildi. Xuddi shu jarayon balansdan tashqari hisobvaraqlarda aks ettirilayotgan kreditlarga ham qo'llanilib, muammoli aktivlarni sog'lomashtirish choralarini ko'rish imkoni yaratildi. Amalga oshirilgan tadqiqotlar bugungi kunda bank tizimiga to'liq tatbiq etildi.

Dastlab kreditlarning to'lov grafigidan foydalangan holda muddati o'tgan va to'lov grafigi mavjud qismlarga ajratish ishlari amalga oshirildi. Bu jarayonlar kelgusidagi to'lov grafiklariga ham amal qilinishi belgilandi. Ushbu holatdan kelib chiqib muddati o'tgan hamda muddatli sud jarayonidagi kreditlar va balansdan tashqari hisobvaraqlarda aks ettirilayotgan kreditlar vujudga keldi. Navbatdagi to'lov

grafigi sanasida muddati o'tgan qismi ko'payishi jarayonlari avtomatlashtirildi. Muddati o'tgan qarzdorlik so'ndirilishi natijasida, agar kredit sud jarayonidagi hisobvaraqlarda va balansdan tashqari hisobvaraqlarda aks ettirilishidan qat'iy nazar sog'lomashtirish imkoni vujudga keldi.

Bu o'z navbatida banklarda daromad keltirmaydigan aktivlarni daromad keltiruvchi sog'lom aktivlar qatoriga qo'shish imkoni paydo bo'ldi.

Tahlil va natijalar

Bank tizimida aktivlar tasniflanishini samarali boshqarish maqsadida barcha aktivlarni bir tizimga moslashtirish talab etmoqda. O'rganishlar natijasida aktivlarni sog'lomashtirishni yangi mexanizmini joriy etishda aktivlarni markazlashgan holda tasniflash moduli yoki kapsulasini joriy etish va ushbu dastur yordamida barcha aktivlarni kuzatib borish imkonini yaratish zarur bo'ladi

Aktivlarning tasniflanishi 2 xil yondashuv asosida amalga oshirish lozim. Mijoz xos raqami bo'yicha va bank xos raqami bo'yicha. Mijoz xos raqami bo'yicha eng yomon toifada tasniflangan aktiv sifati olinadi. Bank xos raqami bilan esa ushbu qoida amal qilmaydi.

Ya'ni bank xos raqami bilan ochilgan 16701 hisob raqamida 2 ta mulk bank balansiga olingan bo'lib, biri umidsiz tasniflangan bo'lsa ikkinchi mulk xam bank balansiga qabul qilinganiga 366 kundan oshmagan bo'lsa umidsiz tasniflanmasligi lozim.

Aktivlarning barcha qismlarini bir tizimda ko'rib borish, Kreditlar, bo'lib to'lash sharti asosida sotilgan mulklar, Bank kafolatlari, Bank xizmatlari, Ijara haqlari, Bank balansidagi mulklar va boshqa aktivlar va ular bo'yicha yaratilgan zaxiralarni nazorat qilish uchun xar bir bank filiallari kesimida va mijozlar kesimida yagona oynaga jamlash lozim.

Ushbu orqali ma'lum bir mijozning qaysi bir aktivi yoki muddati o'tgan qismidagi muammo tufayli aktivlar yomonlashishi nazoratga olinadi. Bu orqali sifati yomonlashgan mijozning bank kafolati, krediti yoki bank xizmati bo'yicha dastlabki undirilishi lozim bo'lgan aniq bir qismi kelib chiqadi. Ushbu mablag'ning undirilishi natijasida boshqa aktivlar sog'lomlashishiga erishiladi. Bank xarajatlari hisobidan yaratilishi lozim bo'lgan zaxiralar yaratilishi oldi olinadi.


Mijoz	Yakuniy tasnif	Aktiv tasnifi (klass bo'yicha)								
		Shundan								
		Kredit	Bo'lib to'lash	Bank kafolati	Bank xizmati	Ijara haqi	Akkreditiv	Aktivlar	Boshqa aktivlar	Mulklar
		15501	16803	90993	16401	16413	90909	1%	19900	16700
A	5	1	0	5	1	1	1	0	0	0
B	3	2	0	0	1	3	0	0	0	0

Manba: Muallif ishlanmasi.

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, agar bank "A" tashkilotga ajratilgan mablag'larini ya'ni aktivlarini sog'lom holatda aks ettirish uchun unga berilgan bank kafolatini zudlik bilan undirish chorasini ko'rish lozim bo'ladi. Aks holda ajratilgan "bank kafolati"ga, yuzaga kelgan "bank xizmati", "ijara haqi", "kredit va unga hisoblangan foizlari" qiymatiga teng miqdorda 100% zaxira yaratish talab etiladi. "B" tashkilotga ajratilgan

mablag'larini ya'ni aktivlarini sog'lom holatda aks ettirish uchun unga berilgan (terminal ijarasi) ijara haqini va undan so'ng muddati o'tgan kredit qarzidorliklarini undirish chorasini ko'rish lozim bo'ladi. Aks holda "B" tashkilotning barcha majburiyatlari uchun dastlab 25% miqdorida, so'ngra 10% miqdorida zaxira yaratish talab etiladi.

Ushbu jarayonlarni strategik nuqtayi nazardan bank tarmoqlariga hamda umumiy bank miqyosida esa bankning barcha aktivlariga qo'llash mumkin bo'ladi.



Birgina kredit qarzidorliklari misolida oladigan bo'lsak, 2024 yilda 2023 yilga nisbatan 2,6 trln.so'mga, 2025 yilda esa 2024 yilga nisbatan 4,6 trln.so'mga aktivlar yomonlashganini ko'rish mumkin. 2025 yil davomida kredit qo'yilmalarida NPL qarzidorliklar (tarkibi qoniqarsiz, shubxali va umidsiz tasniflangan kreditlar) ulushi 4,0 % dan 3,8 % ga ya'ni 0,2 % ga kamaygan bo'lsada, lekin umumiy hisobda 684,7 mlrd.so'mga ortgan. Buni birgina kredit qo'yilmalari o'tgan yarim yil davomida 42,1 trln.so'mga ortgani bilan izoxlanadi.

Xulosa va takliflar

Kreditlar sifatining yomonlashishi majburiy tartibda qo'shimcha zaxiralar shakllantirishga olib keladi. Xabaringiz bor Nizomga kiritilgan o'zgarishlarga muvofiq kreditlarga hisoblangan foizlar, neustoyka, jarimalarga ham kredit tasnifidan kelib chiqib zaxiralar shakllantiriladi. Bir kreditni tijorat banki qoniqarsiz toifada tasniflab va unga 25 % miqdorida zaxira shakllantirsa, ushbu kredit bankka har qanday holatda ham daromad keltirmaydi. Bunga sabab, olingan daromad (hisoblangan foizlar)dan to'lanadigan soliq, omonatchilardan olingan mablag', jalb qilingan xorijiy yoki mahalliy resurslarga to'lanadigan xarajatlar, yaratilgan zaxiraning 20 %idan to'lanadigan 20 % lik soliq va boshqa ishlab chiqarish xarajatlari inobatga olinsa, kreditlarni eng kasida substandart yoki standart toifada tasniflashi lozim bo'ladi. O'z navbatida bunday hollarda muddati o'tgan qarzidorliklar vujudga kelishiga yo'l qo'ymaslik talab etiladi.

Yuqoridagi jarayonlar aktivlarning boshqa turlariga ham tegishli bo'lib, muddati o'tgan qarzidorliklari bo'yicha bank kafolatlari, bo'lib to'lash sharti asosida sotilgan mulklarga ham tegishli hisoblanadi. Bank xizmatlari, ijara haqlarini vujudga kelgan xaxoti undirish talab etiladi. Bank balansiga qabul qilingan mulklar bank uchun daromad keltirmaydigan aktiv hisoblanib 1 yil davomida sotilmasa 100 % miqdorida zaxira talab etadi. Bank balansiga qabul

qilingan mulklar qancha tez sotilsa ushbu qiymatga teng miqdorda bankda daromad keltiruvchi aktiv paydo bo'ladi va o'z navbatida qo'shimcha yaratilishi lozim bo'lgan zaxiralar oldi olinadi.

Albatta xorijiy tarjiba yoki hamkorlar nazdida yaratilgan zaxiraning aktivlarga nisbati yuqori bo'lishi bu yaxshi holat hisoblanadi, chunki bunday zaxira moliyaviy barqarorlikni oshiradi, ehtimoliy risklarni qoplash imkoniyatini kengaytiradi va investor hamda xalqaro moliya institutlari oldida bankning ishonchliligini kuchaytiradi. Shu bilan birga, yuqori zaxira mijozlar oldidagi majburiyatlarni o'z vaqtida bajarishga xizmat qiladi va bankning umumiy reytingini yaxshilaydi. Bu holat katta ehtimol bilan bankning olingan daromadiga bog'liq.

Xulosa o'rnida. Bank tavakkalchilik asosida ishlarni amalga oshirar ekan, amaliyotlar natijasida vujudga keladigan zararlarga ham tayyor bo'lishi lozim. Ammo ushbu zararlarni minimallashtirish, zarar hajmini kamaytirish albatta bank aktivlarini samarali boshqarishga va zamonaviy yechimlar asosida ishlab chiqilgan mexanizmlarga bog'liq.

Aktivlarini samarali boshqarish – bu har bir aktiv turi, hajmi va albatta ushbu aktivning boshqa bir aktivlarga ta'sirini o'rganish asosida boshqarish hisoblanadi.

Ushbu jarayonlarni samarali mexanizmlar asosida boshqarish, bugungi kunning muhim ahamiyatga ega bo'lgan jarayoni hisoblanadi.

Umuman olganda, aktivlarni eng kamida substandart tasniflash ham bank zarariga ishlashi mumkin. Sababi ma'lum bir haq evaziga omonatga jalb qilingan mablag'lar, chet eldan jalb qilingan mablag'lar 10% bank marjasi kredit yoki boshqa bir aktivning substandart tasniflanishi natijasida ushbu aktivga yo'naltirilgan mablag'lardan olinadigan daromadni nolga teng bo'lishini ta'minlaydi. Bu esa o'z navbatida aktivlarni maksimal darajada yaxshi toifada tasniflash lozimligini anglatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.O'zbekiston Respublikasining Qonuni "Banklar va bank faoliyati to'g'risida" Toshkent sh., 2019 yil 5 noyabr, O'RQ-580-son

2.O'zbekiston Respublikasining Qonuni "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga kredit majburiyatlarini bajarish tartibini takomillashtirish hamda aholining mikromoliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risida" O'RQ - 914-son 2024 yil 27 fevral

3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori. 2018 yil 23 martdagi PQ-3620-son

4.Bank xizmatlari iste'molchilari bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklarining faoliyatiga qo'yiladigan minimal talablar to'g'risidagi Nizom 2018 yil 2 iyul № 3030

5. Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi 2696-sonli nizom. 2015 yil 14 iyul.

6. www.cbu.uz - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki internet sayti

7. [www.Lex. Uz](http://www.Lex.Uz)